

**“BOLALAR VA O'SMIRLARDAGI AGRESSIVLIKNING
NAMOYON BO'LISH SABABLARI”**

O'zbekiston Respublikasi Milliy Universiteti 2-bosqich magistranti

Bo'riyeva Madina Abdullayevna

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqola bolalar va o'smirlardagi agressivlikning asosiy sabablarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda agressiv xulq-atvorning rivojlanishiga biologik, psixologik, va ijtimoiy omillar ta'sir qilishi ko'rib chiqilgan. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida, maqolada oiladagi munosabatlar, tengdoshlar ta'siri, maktab muhitidagi muammolar, hamda ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining rolini o'rganish natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda o'smirlarning agressivlik darajasi ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ekologik faktorlar, masalan, oilaviy stress, ta'lim muassasalaridagi xatti-harakat qoidalari va do'stlar bilan aloqalar orqali o'zgarishi aniqlangan. Shuningdek, maqolada o'smirlardagi agressivlikni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Bu tavsiyalar oilada o'quvchi bilan muloqotni yaxshilash, maktabda psixologik yordam ko'rsatish, va ijtimoiy dasturlar orqali agressivlikni oldini olishga qaratilgan. Tadqiqot, bolalar va o'smirlarda agressivlikni kamaytirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda va ularni amaliyotga joriy qilishda muhim ilmiy asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Agressivlik, ruhiy salomatlik, ijtimoiy tarmoqlar, tengdoshlar ta'siri, stress, travma, psixologik yordam, agressivlik darajasi.*

АННОТАЦИЯ: *Данная статья посвящена анализу основных причин проявления агрессивности у детей и подростков. В исследовании рассматриваются биологические, психологические и социальные факторы, влияющие на развитие агрессивного поведения. На основе анализа научной литературы в статье представлены результаты исследования роли семейных отношений, влияния сверстников, проблем в школьной среде, а также социальных сетей и средств массовой информации. В ходе исследования было*



установлено, что уровень агрессивности у подростков изменяется в зависимости от экологических факторов, таких как семейный стресс, школьные дисциплинарные проблемы и отношения с друзьями. Также в статье представлены рекомендации по снижению агрессивности среди подростков, включая улучшение взаимодействия с детьми в семье, предоставление психологической помощи в школах и использование социальных программ. Это исследование создает научную основу для разработки эффективных стратегий по снижению агрессивности у детей и подростков и их внедрению на практике.

Ключевые слова: Агрессия, психическое здоровье, социальные сети, влияние сверстников, стресс, травма, психологическая помощь, уровень агрессии.

ABSTRACT: This article is dedicated to analyzing the main causes of aggression in children and adolescents. The study examines biological, psychological, and social factors influencing the development of aggressive behavior. Based on the analysis of scientific literature, the article presents the results of the study on the role of family relationships, peer influence, school-related issues, and the impact of social media and mass media. The research findings indicate that the level of aggression in adolescents is influenced by environmental factors such as family stress, school disciplinary issues, and peer relationships. Additionally, the article provides recommendations for reducing aggression in adolescents, including improving communication within families, offering psychological support in schools, and implementing social programs. This research establishes a scientific foundation for developing and implementing effective strategies to reduce aggression in children and adolescents.

Keywords: Aggression, mental health, social media, peer influence, stress, trauma, psychological support, aggression level.

Ushbu maqola bolalar va o'smirlardagi agressiv xatti-harakatlarning sabablari va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot bolalar va o'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim



davrni qamrab oladi va agressivlikning shakllanishida oila, maktab muhiti, jamiyat, shuningdek, genetik va biologik omillarning ta'sirini o'rganadi. **Agressivlik** bu biror kishiga yoki jismoniy ob'ektga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Agressiv xulq har xil shakllarda ko'rinishi mumkin: jismoniy (to'qnashuvlar, urishlar), og'zaki (ta'qib qilish, haqoratlash) va psixologik (tahdidlar, qo'rqitish). O'smirlar orasida agressivlik ko'pincha ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlik sifatida paydo bo'ladi. Bu holatni keltirib chiqaradigan asosiy omillar — stress, oilaviy muammolar, do'stlar ta'siri, maktab muhitidagi konfliktlardir. **Bolalik davrida agressivlik:** Dastlabki yoshda bolalar o'z his-tuyg'ularini boshqarish uchun zarur vositalarga ega emaslar, shuning uchun agressivlik ularning ijtimoiy rivojlanishining bir qismi bo'lishi mumkin. **O'sish va o'smirlik davrida:** O'smirlikda gormonal o'zgarishlar va tashqi muhitning ta'siri bilan agresivlikning darajasi oshishi mumkin. Agressivlik o'zini jamiyatda tan olish, o'zini ifoda etish yoki g'alaba qozonish istagi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Moffitt va Caspi (2001) tadqiqotida, agressivlikning biologik va psixologik aspektlari o'rganilgan va bu xatti-harakatlarning genetik omillar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda o'smirlarda gormonal o'zgarishlar va ruhiy holatlar agressivlikni kuchaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan. **Tatar va Jaffee (2021)** tadqiqotida o'smirlar orasidagi agressivlikni rivojlantiruvchi ekologik omillar, masalan, oilaviy zo'ravonlik, tengdoshlar ta'siri va maktab muhitidagi stresslar keltirilgan.

Psixologik va sotsiologik yondashuvlar: Agressivlikni kamaytirish bo'yicha **psixologik yondashuvlar** - bunga o'smirlarning o'z his-tuyg'ularini boshqarishga o'rgatish, psixoterapiya va oilaviy maslahatlar kiradi. Shuningdek, **maktab muhitida agressivlikni kamaytirish** uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. **Sotsiologik yondashuvlar** - ijtimoiy muhitning, jumladan, oilaviy aloqalar, do'stlar va ijtimoiy tarmoqlarning agressivlikka ta'sirini kamaytirish maqsadida, maktablarda va jamoada xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar orasida agressiv xulqni kuchaytirishi mumkin bo'lgan asosiy omillardan biridir. O'smirlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarini



boshqalarga taqqoslaydilar, bu esa qahramonlik yoki kuchli bo'lishga intilishdagi agressivlikka olib kelishi mumkin. **Ommaviy axborot vositalari**, xususan, zo'ravonlik va agressivlikni namoyish qiluvchi filmlar va seriallar, bolalar va o'smirlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ommaviy axborot vositalarida namoyish etilayotgan narsalarga diqqatliroq bo'lish lozim, ota va onalar farzandlari ekranlar orqali nima tomosha qilayotganidan doim boxabar bo'lishlari talab qilinadi.

O'smirlarda agressivlikni kamaytirishda eng muhim o'rin egallovchi tuzilmalar bular oila davrasi va maktabdir. Oilaviy yondashuvda agressivlikni kamaytirish uchun, ota-ona o'smirlar bilan ijobiy muloqot qilishi, oilada kuchli sevgi va qo'llab-quvvatlovchi muhit hosil qilishi zarur. Chunki o'smir yoshidagi bolalar ko'p hollarda o'zlarini yolg'iz his qilishlari, ko'p hollarda o'zlariga e'tibor yetishmagandek ko'rishlari sababli ham agressiviyaga berilishlari ham haqiqatdan uzoq emas. Buning uchun ham ota- onalar farzandlari va bir-birlari bilan do'stona munosabat o'rnatishlari maqsadga muvofiqdir. **Maktabdagi yondashuvda** esa agressiv xulq-atvorni kamaytirish uchun maxsus psixologik dasturlarni amalga oshirish va o'smirlarni o'z xatti-harakatlarini boshqarishga o'rgatish kerak, bundan tashqari, o'zining agressiv xulqi bilan boshqa bolalardan ajralib turuvchi bolalarni alohida to'plagan holda faollar zalida ularga bu holni ifodalovchi turli videoroliklar namoyish etib, ularning bu holatga bo'lgan reaksiyasini ko'rish ham mumkin.

Agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishida oilaviy muhitning roli katta ekanligi ta'kidlanadi. Oilada zo'ravonlik, beparvolik yoki haddan tashqari qattiqqo'llik bolalar psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda agressiv reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, bolalarning tengdoshlari orasidagi salbiy tajribalar, masalan, kamsitish yoki qabul qilinmaslik hissi ham agressiv xulqning shakllanishiga turtki beradi.

Oiladagi muhit va ota-onalarning farzandga bo'lgan munosabati uning shaxsiy rivojlanishi, hissiy barqarorligi va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Agressiv xulqning shakllanishi ko'pincha oilaviy muhit va tarbiya usullariga bog'liq. O'smirlik davridagi agressiv xulqni aniqlash va uning oldini olish



bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Oilaviy muhitning psixologik sogʻlomligi farzandlarning hissiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, oilada mehribonlik va qoʻllab-quvvatlashning yetishmasligi bolalarda agressiv xulqni kuchaytiradi. Shuningdek, oiladagi konfliktlar, zoʻravonlik yoki haddan tashqari nazorat farzandlarning ichki qarama-qarshiliklarini kuchaytirib, oʻzini ifoda qilishda agressiyaga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari qattiqqoʻllik va jazolash tarbiyaviy usuli bolalarda qarshilik koʻrsatish, hissiy oʻzini himoya qilish kabi salbiy xulqni shakllantiradi yoki boʻlmasa ota-onaning befarqligi va eʼtibor yetishmasligi farzandlarning ijtimoiy moslashuvchanligiga salbiy taʼsir koʻrsatib, ularni tajovuzkorlikka moyil qiladi. Hozirgi davrga kelib bu muommalar oʻta dolzarbdir. Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar oilaviy munosabatlarga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. “Oilada konfliktologiya asoslari” kitobida qayd etilishicha, ota-onalar farzandlariga yetarli darajada vaqt ajratmasligi va muloqotning kamayishi ularning hissiy masofalanishiga olib keladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taʼsiri tufayli oʻsmirlarning agressiv xatti-harakatlari kuchaymoqda. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun nima qilish zarur?

Quyidagilar eng samarali usullardir:

1. Ijobiy muloqot: Ota-onalar farzandlarini diqqat bilan tinglashlari va ularga mehr koʻrsatishlari lozim.
2. Qattiq nazoratdan qochish: Farzandlarga erkinlik berish, lekin ular faoliyatini kuzatish orqali tarbiyaviy balansni saqlash kerak.
3. Oiladagi mehribonlik va ota - onaning farzandlariga boʻlgan ishonch.

Ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi sogʻlom munosabatlar oʻsmirlarning rivojlanishi va agressiv xulqning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, oiladagi mehribonlik, ijobiy muloqot va moslashuvchan tarbiya farzandlar rivojlanishini sogʻlom yoʻnalishga olib boradi. Bu jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarurdir.

XULOSA



O'smirlar orasidagi agressivlik – bu ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab xulq-atvor bo'lib, biologik, oilaviy, ijtimoiy va shaxsiy omillarning birikmasi sifatida namoyon bo'ladi. Agressiv xatti-harakatlar o'smirlarning rivojlanish jarayonida qiyinchiliklar, stress, psixologik travmalar va tengdoshlar ta'siri orqali kuchayishi mumkin. O'smirlar uchun tengdoshlar guruhidagi agressiv xulqni qabul qilish, oilaviy zo'ravonlik, ruhiy salomatlik muammolari kabi omillar agressivlikning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining zo'ravonlikni idealizatsiyalash yoki o'smirlarning salbiy ta'siriga olib kelishi, o'smirlarning xulqini yana ham kuchaytirishi mumkin. Agressivlikning oldini olish va boshqarishda psixologik yordam, psixoterapevtik yondashuvlar, ijtimoiy-emotsional o'qitish va oila muhitidagi qo'llab-quvvatlashni ta'minlash samarali vositalar hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy dasturlar va maktablarda olib boriladigan preventiv chora-tadbirlar, o'smirlarning o'zini ifoda etishning ijobiy usullarini o'rgatish va konfliktlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu kabi kompleks yondashuvlar o'smirlarda agressivlikni samarali ravishda kamaytirish va ularning sog'lom rivojlanishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matyushkin, M.V. (2003). Oilaviy tarbiyaning psixologik asoslari. Moskva.
2. Krech, G. (1988). Oilaviy psixologiya. Moskva: Prospekt.
3. Shafirov, Sh. (2020). Oilada konfliktologiya asoslari. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
4. Baumrind, D. (1966). Effects of authoritative parental control on child behavior. *Child Development*.
5. Seligman, M. (2002). *Positive Psychology*. Oxford University Press.
6. Moffitt, T. E., & Caspi, A. (2001). "Traits and causes of aggressive behavior in children." *Clinical Child Psychology Review*, 4(3), 237-249.
7. Lansford, J. E., et al. (2014). "Peer relationships and aggressive behavior in adolescence." *Development and Psychopathology*, 26(2), 539-552.



8.Cohen, J., & Wills, T. A. (1985). "Stress, social support, and the buffering hypothesis." *Psychological Bulletin*, 98(2), 310-357.